

## **MOLIYA BOZORI RIVOJLANISHINING MAMLAKAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI**

**Matqurbanova Aziza Davronbek qizi**

**Guliston Davlat Universiteti**

**Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar fakulteti**

**Iqtisodiyot tarmoqlar va sohalar yo'nalishi**

**3 – bosqich talabasi**


**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat iqtisodiyotida moliya bozorining tutgan o'rni, moliya bozori rivojlanishining taraqqiyotga ta'siri va rivojlantirish istiqbollari va ushbu mavzuga doir ilmiy tadqiqoqlar tahlillar haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliya bozori, moliyaviy vosita, savdo, pul mablag'lari, iqtisodiy rivojlanish

### **Kirish**

"Moliya bozori" atamasi juda keng tushuncha va moliya-kredit mexanizmining amal qilish sohasidir. Moliya bozori moliyaviy vositalar savdosi uchun uyushgan yoki norasmiy tizimdir. U haqiqatdan ham ko'p ma'noli va murakkab iqtisodiy toifani tashkil qiladi, hamda muayyan moliya muassasalari orqali o'zaro ta'sirda bo'ladigan mulk egalari bilan sarmoya, qarz oluvchilar o'rtaqidagi munosabatni tasvirlaydi. Moliya bozorining mohiyati moliyaviy vositalari savdosida amalga bozori institutlarining rivojlanishi va ishlarini talab qiladi. Va bu bo'shliq qanchalik katta bo'lsa, ehtiyoj shunchalik o'tkir. Hozirgi zamon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga qarab, mamlakat iqtisodiyotning "ahvoli" haqida fikr yuritish mumkin, chunki moliya bozoriga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning iqtisodiy faoliyatini boshqarish mumkin. Shuning uchun moliya bozorini rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizdagi muhim vazifalardan biridir. Moliya bozori iqtisodiyotni rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, kapital jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947-sonli Farmonida ham ushbu masalaga alohida to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag'larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi moliya bozorini o'rta muddatli va 98 uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilab qo'yilgan.

Moliya bozori iqtisodiy tizimda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu iqtisodni boshqaradigan vositadir, ortiqcha birliklar defitsit birliklari bilan uchrashadigan va har xil moliyaviy kelishuvlarni muhokama qiladigan platformalardandir. Moliya bozorini rivojlantirishning maqsadi, moliyaviy bozorning vositachi sifatida samarali ishslash imkoniyatini oshirishdir. Samarali moliya bozorida to‘g‘ri risklar va imkoniyatlar, ya’ni taklif tomonida bo‘lgan, aktivlar talabining barcha sinflarini qondirish uchun emitentlarning tanlovini taklif qiluvchi keng miqyosli moliyaviy vositalar, kredit xatarlari va boshqalar mavjud. Talab tomonda har xil investorlarning turli xil xavfxatar bilan birga katta miqdorda investitsiya talabi bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, emitentlar va investorlar o‘rtasidagi xilma-xillik odatda bozorning yaxshi rivojlanishiga sabab bo‘ladi, bu esa moliyaviy aktivlarni faol almashinuviga olib keladi. Yuqori likvidli moliya bozori eng kam narx ta’sirida katta hajmdagi vaturli xil moliyaviy vositalarni berishga qodir. Bu yerda moliyaviy vositalar tezda o‘rtacha narxlarda almashinishi mumkin. Samarali kliring va hisob-kitob qilish tizimi tranzaktsion xarajatlarni kamaytirishga yordam beradigan asosiy omil hisoblanadi.



1

Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida moliya bozorini rivojlantirishning ahamiyatini oshirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Moliya bozorini rivojlantirishga oid nazariy va amaliy asoslarni xorijlik iqtisodchi olimlardan Ercan

<sup>1</sup> Краткий обзор мировых и финансовых рынков (12.02.2024 г.) SQB | BUSINESS ANALYTICS AND MODELLING [www.Fin market.uz](http://www.Fin market.uz)

Ekmekçioğlu o‘zining “The Role of Financial Markets in Economic Growth” maqolasida moliya bozori haqida shunday deb yozgan edi: “Har qanday iqtisodiyotda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda moliyaviy bozorlar muhim ahamiyatga ega. Ular barcha bozorlarga va iqtisodiyotda deyarli barcha shaxslarga yaqindan bog‘liqidir. Bu esa, moliya bozorlarining ahamiyatini kuchaytiradi. Pullarni tahlil qilishning albatta eng yaxshisi real aktivlik va moliya bozorlari o‘rtasidagi yaqin o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlash zarur”. Yana bir iqtisodchi olimlar Duc Hong Vo, Son Van Huynh, Anh The Vo va Dao Thi-Thieu Halarning “The Importance of the Financial Derivatives Markets to Economic Development in the World’s Four Major Economies” deb nomlangan maqolasida “Derivativlar bozori rivojlanishi uzoq vaqtdan beri tadqiqotchilar o‘rtasida qiziqish uyg‘otdi, siyosatchilar va moliyaviy agentliklar. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyaviy tizimda juda muhim rol o‘ynaydi iqtisodiyotning turli jihatlariga o‘z hissasini qo‘shadi”, deb yozgan edilar.

Moliya bozori hamda zamonaviy moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Faqat shunday sharoitdagina investitsiya faoliyatini faollashtirish va investitsiya oqimlarini ishlab chiqarish, so‘ngra esa yuqori texnologiyalar sohasiga qayta yo‘naltirish mumkin bo‘ladi. Zamonaviy moliya bozorlarining asosiy unsurlarini yaratmasdan turib, iqtisodiy o‘sish asosiy omillaridan biri hisoblangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning kirishiga erishib bo‘lmaydi. Moliya bozori yordamida iqtisodiyotda pul mablag‘lari harakati ta’milanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto‘xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. U investitsiyaga aylanayotgan pulning xo‘jalikning turli sohalari o‘rtasida erkin ko‘chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilona foydalanishni ta’milaydi. Moliya bozorini rivojlanlantirish yordamida iqtisodiyotda pul mablag‘lari harakati ta’milanadi, shuningdek, moliya resurslarini beto‘xtov shakllantirish, ulardan samarali foydalanish va sarmoyalash amalga oshiriladi. Investitsiyaga aylanayotgan pulning xo‘jalikning turli sohalari o‘rtasida erkin ko‘chib yurishi, moliya resurslaridan erkin va oqilano foydalanishni ta’milaydi.

Bu o‘z navbatida mamlakat taraqqiyotiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Takliflar va xulosalar Moliya bozorining mohiyati, yuqorida aytib o‘tilgandik, iqtisodiy munisabatlar va ularga xizmat ko‘rsatuvchi institatlarning yig‘indisidan iborat bo‘lib, moliyaviy vositalar orqali pulning kapitalga aylanishini ta’milaydi. Mamlakatimiz moliya bozori jahon moliya-iqtisodiy inqirozi davrida o‘zining barqaror va ishonchi ekanligini isbotlagani ma’lum. Shuningdek, mamlakatimiz moliya bozorini yanada rivojlantirish va barqarorlashtirishning yo‘nalishlarini sanab o‘tish maqsadga muofiqdir:

- ✓ jahon amaliyotlaridan foydalangan holda mamlakatimiz moliya bozori faoliyatini tartibga solish, nazorat qilish, barqaror rivojini ta'minlash yuzasidan qator qonunchilik asoslarini yaratish;
- ✓ Moliya xizmatlar bozori va investorlarining huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish va moliya bozorini yanada erkinlashtirish, uning kapitallashuv darajasini oshirish;
- ✓ Moliya bozirini rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash va ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarini amalga oshirish uchun resurslar yaratish, investitsiyalarni jalb qilish hamda sohalar va tashkilotlar samarali kapital oqimlarini tashkil qilish hamda ular raqobatbardoshligini mustahkamlash va moliya bozorining yangi segmentlarini shakillantirish;
- ✓ Moliya bozorida innovatsiyalarni yaratish maqsadida moliyaviy aktivlar likvidliligini oshirish va uni tartibga solish uchun REPO, SVOP operatsiyalarini yanada rivojlantirish;
- ✓ Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida moliya bozori rivojlanishining ilg'or xorij tajribasini tahlil qilish, undan foydalanish va mamlakatimiz amaliyotidagi imkoniyatlarini baholash;

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoveyning "Ozbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 17.02 2017. [Https://lex.uz/docs/3107036](https://lex.uz/docs/3107036)

2.“The Importance of the Financial Derivatives Markets to Economic Development in the World’s Four Major Economies” Duc Hong Vo, Son Van Huynh, Anh The Vo and Dao Thi-Thieu Ha, Published: 14 February 2019.

3.Ercan Ekmekçioğlu, “The Role of Financial Markets In Economic Growth”  
101

4. Sh.Sh Shoha'zamiy, K. Ismoilov ... "Moliya bozori" T-"Ilm ziyo".2014

5. S.P.Abdullayev. ""Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv sharoitada O'zbekiston bank-moliya sohasini modernizatsiyalashning zamonaviy tendensiyalari" .

6.www.uba.uz